

SHAHODAT ISAXONOVA ASARLARIDA QO‘LLANGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA XALQ MADANIYATINING AKS ETISHI**Erkaboyeva Feruza Muzaffar qizi**

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15714960>

Annotatsiya. Maqolada til va madaniyatning kesishuvi, lingvomadaniyat termini va Sh.Isaxonova asarlarida qo‘llangan frazeologik birliklar va ularning lisoniy tahlili, til va madaniyat va uning namoyon bo‘lishida frazemalarning ahamiyati masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologik birliklar, barqaror birikma, erkin birikma, lingvomadaniyat, milliy qadriyat, somatik frazeologizmlar, struktur-semantik xususiyatlar, madaniy kod.

Abstract. The article covers the intersection of language and culture, the term linguocultural and phraseological units used in the works of Sh. Isakhanova and their linguistic analysis, language and culture and the importance of phraseology in its manifestation.

Keywords: phraseological units, stable combination, free combination, linguistic culture, national value, somatic phraseologisms, structural-semantic features, cultural code.

Аннотация. В статье рассматриваются взаимосвязь языка и культуры, термины лингвокультурология и фразеологические единицы, используемые в трудах Ш. Исахановой и их лингвистический анализ, язык и культура и значение фразеологии в ее проявлении

Ключевые слова: фразеологические единицы, устойчивое сочетание, свободное сочетание, лингвокультура, национальная ценность, соматические фразеологизмы, структурно-семантические особенности, культурный код.

Til va madaniyatning o‘zaro bir nuqtada kesishuvi lingvomadaniyatning shakllanishida asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Madaniy qadriyatlar, axloqiy xususiyatlarni ifodalashda lingvomadaniy birliklar muhim vazifani bajaradi. Lingvomadaniy tahlil masalalari jahon tilshunosligida Vilgelm fon Gumboldning nazariy qarashlari bilan boshlangan bo‘lsa, u moddiy va ma’naviyatning tilda namoyon bo‘lishi, madaniyatning milliy xarakteri va xalq ruhiyatini ifodalashdagi halqa ekanligiga diqqatini qaratgan. (Телия В.Н., Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты.)

Keyinchalik Teliya, Sh.Balli, J.Vandriyez, Boduen de Kurtene F.Bakk, R.Vayntraub, O.A.Kononova, E.S.Gasanova, I.U.Adjiyevalarning qarashlarida tahliliy ma’lumotlar bilan bayon etilgan. (Batirxonova M. Somatik frazeologik birliklar tarjimasining lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari.)

Jahon tilshunoslari o‘z lingvistik qarashlarida dastlab frazeologizmlarning badiiy asarlardagi tadqiqiga e’tibor qaratishgan bo‘lsa, keyinchalik turli tillardagi iboralar va ularning tarjima jarayonidagi xususiyatlari, barqarorligi va asar mohiyatini ta’minlashdagi roli masalalariga to‘xtalib o‘tishgan.

Lingvomadaniyat o‘ziga xos lisoniy birliklar – frazeologik birliklar, metaforalar va maqollar bilan namoyon bo‘ladi. Millatga xos bo‘lgan milliy xususiyatlar asosan iboralar orqali yuzaga keladi va maqollarda xalq tafakkurining namoyon bo‘lishi bilan voqecalanadi. Ayniqsa, frazeologik birliklar barqaror xarakterga ega bo‘lib, muayyan millatga xos belgilarni xalqning dunyoqarashi, an’ana va urf-odatlar bilan birgalikda yaxlit tarzda aks ettiradi. Tarixiy tafakkurni belgilashda, mentalitetiga xos fazilat va xislatlarni aks ettirishda frazeologik birliklar alohida o‘rin egallaydi.

Frazeologik birlik – struktur- semantik jihatdan yaxlit ko‘rinishga ega bo‘lgan birlik sifatida eng qadimgi davrlardan Avestodan boshlab bugungi kungacha olimlar uchun qimmatli manbaa sifatida baholanadi. Bir tildagi frazeologik birliklar ifodasi so‘zlovchining jinsini, ijtimoiy darajasini, ma’lumotini, dunyoqarashini, yoshini, yashash joyini ko‘rsatishda muhim o‘rin tutadi.

Jumladan, Shahodat Isaxonova asarlarida qo‘llangan frazeologik birliklar tarixiy davr, tarixiy sharoit va tarixiy shaxslarga xos belgilarni ko‘rsatib, turkiy xalqlarga xos lingvomadaniyat belgilarini ifodalash bilan namoyon bo‘ladi.

“Do‘ppisini osmonga otmoq” iborasi aynan o‘zbek tiliga xos frazeologik birlik sifatida xursand bo‘lmoq semasini ifodalaydi. Do‘ppi leksemasi asosan Markaziy Osiyo xalqlarida milliy bosh kiyimi semasiga ega ekanligi bilan ifodalanadi. Qardosh xalqlar tilshunosligida ham bu ibora ko‘tarinkilik, tantanavorlik semasiga ega bo‘lgan frazeologik birlik sifatida qo‘llanadi.

Og‘zining tanobi qochmoq, og‘zi qulog‘ida, chehrasi ochiq frazeologizmlari bilan sinonimik holatda qo‘llaniladigan bu ibora kishilarga xos ruhiyatni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologik birliklar orasida insonning tana a‘zolari nomlarini ifodalovchi somatik frazeologik birliklar ko‘p uchraydi. Bosh, ko‘z, og‘iz, qo‘l, burun leksemalari bilan ifodalangan frazemalar asosan millat kishilariga xos bo‘lgan illat va fazilatlari ifodalashi bilan diqqatga sazovor. Boshi osmonga yetdi, bosh irg‘adi, boshga tushganini ko‘rmoq, bosh-qosh bo‘lmoq, boshi ketadi, kallasi ketadi, boshiga yetmoq, boshidan sovuq suy quygandek, boshini ikkita qilmoq, bosh qo‘shmoq shaklida tarixiy vaziyat, tarixiy muhitni ifodalashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Bosh-qosh bo‘ldi, boshini ikkita qildi iboralari asosan millatimizga xos xususiyatlarni aks ettiradi. A.Blum ta‘biri bilan aytganda, frazeologizmlardagi muayyan xalq xususiyatlarini ake ettirish madaniy kodlar orqali ifodalanadi. Ana shu madaniy kodlar millat qiyofasini belgilaydi. (Usmonova Sh., O‘zbek va turk tillaridagi somatik frazeologizmlar f. f. n diss.)

Ulug‘bek Mirzoning boshini ikkita qilish kerakligi yodiga tushdi.

Bosh tana a‘zosi sifatida frazeologik birikmalar ichida eng ko‘p qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. U xalq orasida frazemalarni yaratishda ham umumiy nuqta funksiyasini bajaradi. Xalq oila qurishni ikki boshni birlashtirish tarzida tafakkur etganligi namoyon bo‘ladi. Bosh qovushtirmoq, boshini ikkita qilmoq frazeologik birliklari “oila qurmoq” semasini ifodalashi bilan diqqatga sazovor. Ma’lumki, inson fikrlaganda, boshqalar bilan maslahatlashib ish yuritganda unumdorlik ortadi, ish sifati yuqorilaydi. Shunday ekan, yuqoridagi iboralarda ham fikrdoshlik, maslakdoshlik, maslahatlashib barcha yumushlarni amalga oshirish uchun yo‘ldoshlik mazmuni ifodalangan.

Bosh-qosh bo‘ldi frazeologik birligi bosh va qosh leksemalarining birikuvidan hosil bo‘lgan bo‘lib, birgalikda amalga oshirmoq, birlashmoq semalarini ifodalaydi. Turkiy xalqlar azaldan ittifoq bo‘lib, o‘zaro mulohaza va mushohada bilan barcha ishlarni amalga oshirishi, ahillik birdamlik fazilatlarini aks ettirishi, har bir ishni amalga oshirishda avvaldan biriktirilgan yoshi ulug‘ kishilar bilan hamjihatlikda amalga oshirishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Boshiga yetmoq somatik frazeologik birikma ham erkin birikma bilan sinonimlik hosil qiladi va til sistemasida alohida o‘rin egallaydi.

Endi Sulton Qozonxon bilan yovlashgan va oxiri boshiga yetib tinchigan hovliqma va guppi amir Qazag‘anni Xonlar begim azaldan yoqtirmasdi.

(Daryoning boshiga yetganda xayollari to‘zidi.

Shahodat Isaxonova.Bibixonim.)

Do'mbirasiga o'ynamoq frazeologik birligi leksik-frazeologik sinonim sifatida namoyon bo'ladi. Do'mbira asosan tanbura leksemasidan kelib chiqqan bo'lib, torli chertma xalq musiqa cholg'usi hisoblanadi. ([http s// uz,vikipedia.uz](http://uz.wikipedia.uz)) Do'mbira va o'ynamoq leksemalarining birikuvidan hosil bo'lgan bu birlik erkin birikma sifatida ham qo'llanadi. Frazeologik birlik sifatida kimningdir ta'siri ostida bo'lish, mustaqil fikrlay olmaslik semalariga ega.

Shahzoda qadrdon o'yinchog'ini qizg'onayotgan bola holiga tushgan, sevimli qo'g'irchog'i allaqachon uni do'mbirasiga o'ynatayotganini anglamas edi. (Shahodat Isaxonova. Bibixonim. Toshkent.)

Xulosa sifatida shuni aytish o'rinliki, Shahodat Isaxonova serqirra ijodkor. Uning asarlari orqali nafaqat, bugungi kun, balki madaniyatimiz shakllanishining dastlabki paytlari Amir Temur va temuriylar davriga xos madaniy kodlarni uchratish mumkin. Madaniy hayot va tilning kommunikativ, estetik, yig'uvchanlik xususiyatlari aynan barqaror birliklar orqali yuzaga kelishi madaniyat va tilning muhim bo'lagi sanaladi. Til taraqqiyotining muhim, ajralmas qismi sifatida xalq tafakkuri va ma'naviy kamolotini namoyon etishda muhim o'rin tutadi. Har qanday tilda frazeologik birliklar milliy xarakterga ega ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: 1996
2. Batirxonova M. Somatik frazeologik birliklar tarjimasining lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari. Andijon, 2022
3. Usmonova Sh. O'zbek va turk tillaridagi somatik frazeologizmlar f. f. n diss. - Toshkent, 1998. B-136
4. Shahodat Isaxonova. Bibixonim. Toshkent, 2011. 292-bet
5. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари.- Самарканд, 1999. 27-бет
6. Ganiyeva Sh. Frazeologik birliklarning sintagmatik tadqiqi. – Farg'ona, 2023. B-35.